PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKIL ETILADIGAN INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING AHAMIYATI

Jurayev Azizbek Azimjonovich
NamDU M-TMB-AU-21 guruhi 2-bosqich magistranti
Shodmonov Qodirxon Odilxonovich
Ta'lim menejmenti kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7677486

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim texnologiyasining predmeti, ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari, shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, turlari va ularning ahamiyati kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim muassasalari, innovatsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, hamkorlik innovatsion ta'lim texnologiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как инновационные образовательные технологии, используемые в образовательном процессе профессиональных образовательных учреждений, предмет инновационной образовательной технологии, этапы внедрения образовательных инноваций в педагогический процесс, личностно-ориентированные инновационные образовательные технологии, виды и их значение.

Ключевые слова: Профессиональные образовательные учреждения, инновации, инновационные образовательные технологии, индивидуально-ориентированные инновационные образовательные технологии, кооперационные нновационные образовательные технологии.

Annotation. This article discusses such issues as innovative educational technologies used in the educational process of professional educational institutions, the subject of innovative educational technology, the stages of introducing educational innovations into the pedagogical process, student-centered innovative educational technologies, types and their significance.

Keywords: Professional educational institutions, innovations, innovative educational technologies, individually oriented innovative educational technologies, cooperative innovative educational technologies.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilayotgan e’tibor barcha ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining jumladan, professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining ham o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o‘quv jarayonini zamon talablari darajasida, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun ularga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berilmoqda, bu esa o‘z navbatida professional ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish, o‘quvchilarning bilim imkoniyatini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda muxim omil hisoblanadi.

Korxonalar orasidagi raqobat o‘z navbatida, ilm-fan, texnika va texnologiyani, ya’ni ilmiy-texnik taraqqiyotining jadallashuviga olib keladi. Ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashuvi, hayotning barcha sohalarini tubdan isloh qilinishi natijasida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish imkoniyatini beradi. Bu erda ham, birinchi qatorga yuqorida qo‘yilgan masalalarni hal qila oladigan kadrlarni tayyorlash muammosi har doim ham ko‘ndalang bo‘lib turadi.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan innovatsion ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar. Bu erda nima uchun bugungi kunda innovatsion texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zarurati tug‘ildi.

Innovatsion ta’lim texnologiyasining predmeti – ta’lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo‘yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o‘quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta’lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Bizda ta’lim nazariyasi va amaliyotida o‘quv jarayoniga texnologik xarakterni kiritish o‘tgan XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Ular an’naviy o‘qitish uchun texnik vositalar majmuasini yaratishda o‘z ifodasini topgan. Hozirgi vaqtda innovatsion ta’lim texnologiyasiga oddiygina “o‘qitishning texnik vositalaridan yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar sifatida qaralmaydi: bu o‘qitish samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish va qo‘llash yo‘li bilan qo‘llanilayotgan usullarni baholash vositasida ta’lim jarayonining tamoyillarini aniqlash va optimallashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotlardir”.

Rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo‘llanib kelinayotgan innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘rganib, xalqimizning milliy pedagogika an’analaridan hamda ta’lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonning milliy, innovatsion ta’lim texnologiyasini yaratish lozim bo‘ladi.

Ta’lim tizimida tub islohotlar zarurligini e’tirof etish uchun o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab pedagogik leksikonda “Innovatsiya” iborasi qo‘llana boshladi. U pedagogika nazariyasi va amaliyotida allaqachon o‘z o‘rnini topgan bo‘lsada, uning mohiyati shu paytgacha to‘laqonli yoritilmagan hisoblanadi, ya’ni yakdillik mavjud emas. Keng ma’noda “Innovatsiya” pedagogik tizimga yangilik kiritish yo‘li bilan ta’lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, sifat va samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Pedagogik tizimiga kiritilgan yangilik sifat va samaradorlikka salbiy ta’sir qilishi ham mumkin. Biz tizimga uning ichki zaxira va imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklargina innovatsiya deb tushunamiz. Pedagogik tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va samaradorlikka erishishga oid g‘oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini-pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. So‘nggi 20-25 yillar davomida pedagogik tizimga ko‘plab yangiliklar kiritilayotganligining guvoxi bo‘lib turibmiz. Misol sifatida yangi konsepsiyalar, investitsiyalar, DTS, testlar, muqobil o‘quv rejalari, yangi turdagi o‘quv yurtlari(jumladan, kasb-hunar maktablari, texnikumlar), texnologiyalar va shu kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Innovatsiya (in-lik, novus-yangi) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni anglatadi. “Innovatsion ta’lim texnologiyasi” deganda odatda o‘quv jarayoniga yangi (foydali texnologiya) elementlarni olib kirish tushuniladi.

SHuning uchun ta’lim tizimi innovatsiyalarni kiritish va o‘zgartirish bilan bevosita bog‘liq.

Bunday o‘zgartirishlar ta’lim tizimining:

– maqsadiga, mazmuniga, usul va texnologiyasiga, tashkil etish shakli hamda boshqaruv tizimiga;

– pedagogik faoliyatdagi o‘ziga xoslik va o‘quv-bilish jarayonini tashkil etishga;

–ta’lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;

–o‘quv-metodik ta’minotiga;

–tarbiyaviy ishlar tizimiga;

–o‘quv reja va o‘quv dasturlariga;

–o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Innovatsion ta’lim jarayonining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- YAngi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo bo‘lishi bosqichi.
- YAratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish bosqichi.
- YAngilikni yoyish, uni keng targ‘ib tadbiq etish bosqichi.
- Muayyan sohada yangilikni hukumronlik qilish bosqichi.
- Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali

natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardan iborat bo‘lib, maqsadi sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish.

Xususiyati, boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga egaligidir.

Ko‘rinishi esa, yangi g‘oyalar; tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan’anaviy yondashuvlar, ilg‘or ish uslublari odatiy bo‘lmagan tashabbuslardan iborat.

Ta’lim innovatsiyalarining turlari quyidagilardan:

1. Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: Pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o‘zgarishlar tavsifiga ko‘ra: Radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra: Modul, tarmoq (lokal) va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Ta’lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish quyidagi bosqichlardan iborat hisoblanadi:

- Muammoni tahlil asosida aniqlash;
- Mo‘ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash;
- YAngilik (o‘zgarish)larni rejalashtirish;
- YAngilik (o‘zgarish)larni amalga oshirish.

Shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, u pedagog va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, talabani qadriyat sifatida e’tirof etilishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari:

1. Modul innovatsion ta’lim texnologiyasi.
2. Muammoli innovatsion ta’lim texnologiyasi.
3. Interfaol innovatsion ta’lim texnologiyasi.
4. Individual innovatsion ta’lim texnologiyasi.
5. Masofaviy innovatsion ta’lim texnologiyasi.
6. Kompyuter innovatsion ta’lim texnologiyasi.
7. Hamkorlik innovatsion ta’lim texnologiyasi
8. Loyiha innovatsion ta’lim texnologiyasi.

9. Dasturiy innovatsion ta’lim texnologiyasi.
10. Tabaqalashtirilgan innovatsion ta’lim texnologiyasi.
11. Rivojlantiruvchi innovatsion ta’lim texnologiyasi.
12. O‘yin texnologiyalari.
13. Gender innovatsion ta’lim texnologiyasi.
14. Quvvatni tejovchi innovatsion ta’lim texnologiyasi va boshqalardir.

Yuqorida keltirib o‘tilgan shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan ba’zi bir na’munalarni keltirib o‘tamiz:

Jumladan, hamkorlik innovatsion ta’lim texnologiyasi – o‘quv jarayonida o‘quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “pedagog-o‘quvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi texnologiyadir.

Hamkorlik innovatsion ta’lim texnologiyasi g‘oyalari XX asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqa pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan.

Hamkorlik innovatsion ta’lim texnologiyasining maqsadi o‘quvchilarda intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish orqali dunyoqarashni hosil qilishdir.

Hamkorlik innovatsion ta’lim texnologiyasini qo‘llashda o‘quvchilardan quyidagilar talab etiladi:

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;
- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas’uliyatli yondashish;
- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo‘lish;
- nafaqat o‘z yutug‘i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilish;
- juftlikda va guruhda ishlash – jiddiy va mas’uliyatli mehnat ekanligini his qilish kabilardir.

Xulosa o‘rnida professional ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmun-mohiyati, ahamiyati va ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Fan. – 2008. – 169 b.
2. Turg‘unov S.T. Uluqov N.M., SHodmanov Q.O., Maqsudova L.A.. Ta’lim muassasalarida boshqaruv. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan. – 2008 y.

3. Turg‘unov S.T., Axmedova N., SHodmanov Q.O. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentliligini rivojlantirish. – Namangan: “Namangan”, 2012.

4. SHodmanov Q.O., Xatamova R.Z. Ta’lim sifatini ta’minlashda innovatsion menejmentning o‘rni va ahamiyati. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021 yil maxsus son, 789-794-betlar.

5. Rahimov M., & Shodmanov Q. (2022). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga asosiy yondashuv texnologiyalari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 1267–1271. izvlecheno ot https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7932

6. Odilxanovich Sh.Q. et al. Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 5. – №. 1. – S. 395-400.

7. Karimova U., & Shodmanov Q. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida hamkorlikda boshqaruvni tashkil etishda rahbar xodimlarning funksional vazifalari. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture,3(1 Part 2), 20-24. izvlecheno ot https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/9018